

**SHAHAR SHAROITIDA JANGOVAR HAKAKATLAR OLIB
BORAYOTGAN BO‘LINMALARNING TAKTIK TAYYORGARLIGI VA
ZAMONAVIY YONDASHUVLARI**

Jamoat havfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi

Olimjonov Muxriddin Nizomiddin o‘g‘li

Annotatsiya: Mazkur maqolada shahar sharoitida jangovar harakatlar olib borayotgan bo‘linmalarining taktik tayyorgarligi va zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida urban janglarning ko‘p o‘lchamli xususiyati, vertikal va yer osti makonlarining ahamiyati hamda axborot va texnologik ustunlikning hal qiluvchi roli asoslab beriladi. “Top-Down” shturm, devor ortini ko‘rish texnologiyalari, mikro-dronlar to‘dasi, akustik lokalizatsiya va gibrid harakatlar kabi zamonaviy yondashuvlar misolida bo‘linmalar taktik tayyorgarligini moslashuvchan va kognitiv yo‘naltirilgan tizim sifatida rivojlantirish zarurligi ko‘rsatib beriladi. Maqola natijalari shahar sharoitida jangovar harakatlar olib borish taktikasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy-nazariy asoslarni shakllantiradi.

Kalit so‘zlar: shahar janglari, taktik tayyorgarlik, urban operatsiyalar, zamonaviy taktikalar, kognitiv ustunlik, axborot texnologiyalari, dronlar.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы тактической подготовки подразделений, ведущих боевые действия в городских условиях, а также современные подходы к ведению урбанизированных боёв. Анализируется трансформация городского боя в многоуровневое и многомерное пространство, где решающую роль играют информационное превосходство и технологическая адаптация. На примере тактики «Top-Down», технологий обнаружения объектов за преградами, роев микродронов, акустической локализации и подземных коммуникаций обосновывается необходимость формирования адаптивной и когнитивно-ориентированной

системы тактической подготовки. Полученные результаты могут быть использованы для совершенствования теории и практики ведения боевых действий в городской среде.

Ключевые слова: *городской бой, тактическая подготовка, урбанизированные операции, современные тактики, когнитивное превосходство, информационные технологии, беспилотные системы.*

Abstract: *This article examines the tactical training of units conducting combat operations in urban environments and analyzes contemporary approaches to modern urban warfare. The study highlights the transformation of urban combat into a multidimensional and multi-layered battlespace, where information dominance and technological adaptability play a decisive role. Using examples such as the “Top-Down” assault tactic, sense-through-the-wall technologies, micro-drone swarms, acoustic localization systems, and underground maneuvering, the article substantiates the need to develop tactical training as an adaptive and cognitively oriented system. The findings provide a theoretical basis for improving tactics and training methodologies for combat operations in urban conditions.*

Keywords: *urban warfare, tactical training, urban operations, modern tactics, cognitive superiority, information technologies, unmanned systems.*

Shahar sharoitida jangovar harakatlar olib borayotgan bo‘linmalarning taktik tayyorgarligi va zamonaviy yondashuvlari bugungi kun harbiy fanda eng dolzarb masalalardan biridir. Urbanizatsiya va shahar hududlarining tez o‘shishi qurolli to‘qnashuvlarni asosan aholi punktlarida yuz berishiga sabab bo‘lmoqda. Shahar sharoitidagi janglar ochiq maydon janglaridan tubdan farq qiladi: tor ko‘chalar, ko‘p qavatli binolar, yer osti kommunikatsiyalari bo‘linmalarning harakatlanish va qaror qabul qilish imkoniyatlarini murakkablashtiradi. Shu bilan birga, texnologik rivojlanish yani dronlar, razvedka tizimlari va real vaqtli axborot tizimlari urban janglarning turini o‘zgartirdi. Kichik bo‘linmalarning mustaqil qaror qabul qilishi va moslashuvchanligi jangovar samaradorligini oshirishda hal qiluvchi

ahamiyatga ega bo'ladi. Zamonaviy shahar janglari nafaqat dushmanni yo'q qilish, balki xavfni minimallashtirish va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Shahar sharoitida taktik tayyorgarlik bo'linmalarining barqarorligini saqlash, manevr qilish, ko'chada harakatlanish va bino ichidagi operatsiyalarni o'z vaqtida amalga oshirish imkonini beradi. Shu sababli, urban janglar bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni ilmiy asosda o'rganish va taktik tayyorgarlikni mukammal qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu mavzu bugungi kun harbiy-ta'lim va maxsus bo'linmalar tayyorgarligi tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy shahar janglari bo'yicha olingan tajribalar nazariy va amaliy jihatdan yangi yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Urban janglar sharoitida bo'linmalarni boshqarish, qaror qabul qilish va xavfni baholash ko'nikmalarini mukammal shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro qurolli to'qnashuvlar tajribasi urban janglar uchun yangi standartlar va taktika konsepsiyalarini ishlab chiqishga olib kelmoqda. Shahar sharoitida jangovar harakatlar olib borayotgan bo'linmalarining taktik tayyorgarligi zamonaviy xavfsizlik tizimlari uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy yondashuvlar, ayniqsa, dron va razvedka vositalaridan foydalanish, kichik guruhlar koordinatsiyasi va vertikal hududlar bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Bu esa urban janglarda qaror qabul qilish tezligini va samaradorligini oshiradi. Mavzu dolzarb bo'lishining yana bir sababi urban muhitdagi janglar fuqarolik obyektlariga minimal zarar yetkazish talabini kuchaytiradi. Shu sababli shahar sharoitida taktik tayyorgarlik va zamonaviy yondashuvlar bo'yicha tadqiqotlar harbiy ilm-fan, maxsus bo'linmalar va xavfsizlik sohasida muhim o'rin tutadi.

Shuningdek V.I Karpovning fikricha shahar sharoitida jangovar harakatlar olib borayotgan bo'linmalarining taktik tayyorgarligi zamonaviy operatsiyalar muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ba'zi mutaxassislar klassik mashqlar va qo'shin manevrlari asosiy tayyorgarlik sifatida yetarli, deb hisoblashadi, chunki ular bo'linmalarni real jang sharoitiga yaqinlashtirgan holda mashg'ulotlar olib borishganligi uchun o'z bo'linmalariga ishonishadi[1].

O'.Connorning qarashlari esa zamonaviy yondashuvlar sun'iy intellekt va simulyatsion treninglar yordamida xavfsiz muhitda ko'plab variantlarni sinash imkonini beradi, bu esa qaror qabul qilish va taktik reflekslarni tez rivojlantirish qobiliyatlarini shakillantiradi[2].

Bundan tashqari P.T. Bartone psixologik chidamlilik va stressga qarshi kurash ham shahar sharoitida jangovor harakatlar olib borishda jismoniy tayyorgarlik bilan birga birlamchi omil sifatida e'tiborga olinishi kerakligini ilmiy asoslagan[3].

Mc.Raven esa kichik bo'linmalar asimmetrik yondashuvlar bilan bino ichida tezkor harakatlarda samaraliroq bo'lishi mumkin deya o'z fikrlarini ilgari surgan[3].

Demak, jangovar bo'linmalar tayyorgarligi nafaqat texnik va jismoniy tayyorgarlikni, balki zamonaviy texnologiyalar, psixologik chidamlilik va aholi xavfsizligini ham birlashtirishi lozim. Zamonaviy shahar janglari murakkab va ko'p qirrali bo'lib, taktik yondashuvlarni integratsiyalashgan holda qo'llashni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy tahlillar shahar sharoitida bo'linmalarning tayyorgarligi doimiy yangilanish va zamonaviylashtirishni talab qiladi.

"Top-Down" shturm taktikasi- an'anaviy janglarda binoning birinchi qavati asosiy kirish nuqtasi hisoblansa, zamonaviy taktikada binoning tom qismidan pastga qarab harakatlanish hozirgi kunda ustuvor deb topilgan. Ushbu yondashuv dushmanning asosiy mudofaa chizig'ini (minalashtirilgan eshiklarni) chetlab o'tishga imkon beradi. Bo'linmalar vertolyotdan maxsus arqon tizimlari (Fast Rope) yordamida tomga tushadi va har bir qavatni "tozalab" pastga tushadi. Bu usulda gravitatsiya hujumkor tarafga yordam beradi: granatalarni pastga tashlash osonroq, dushman esa yuqoridan kelayotgan zarbaga qarshi himoyalanişda qiyinchilikka duch keladi. Shuningdek, binoning yuqori qavati egallanishi atrofdagi ko'chalarni to'liq nazorat qilish imkonini beradi. Zamonaviy askarlar ushbu jarayonda "Shock and Awe" (Dahshat va hayrat) effektidan foydalanib, bir vaqtning o'zida barcha derazalardan kirishadi.

Devor ortini ko'rish taktikasi- zamonaviy shahar janglarida "ko'rmay turib xonaga kirmaslik" oltin qoidaga aylangan. STTW (Sense Through The Wall)

qurilmalari ultra keng polosali radarlar yordamida devorning orqasidagi har qanday tirik ob'ektni aniqlaydi. Ushbu datchiklar nafaqat odamning joylashgan o'rnini, balki uning nafas olish chastotasiga qarab holatini (tik turgan, o'tirgan yoki yotgan) ham ko'rsatib beradi. Ma'lumotlar askarning planshetiga yoki dubulg'asidagi displeyga real vaqt rejimida uzatiladi. Bu taktika kutilmagan pistirmalarni 90% gacha kamaytiradi va bo'linmaga dushman devor orqasida turgan nuqtaga aniq zarba berish imkonini beradi. Natijada, bino ichidagi jang "ko'r-ko'rona" otishmadan aniq va tezkor jarrohlik amaliyotiga aylanadi.

Mikro-dronlar To'dasi (Swarm Intelligence) va Avtomatlashgan Razvedka taktikasi- Yaqin kelajakda shahar janglarining ilk qurboni inson emas, balki dronlar bo'ladi. "To'da" taktikasi bir vaqtning o'zida o'nlab mitti dronlarni binoga yoki mahallaga uchirib yuborishni ko'zda tutadi. Bu dronlar o'zaro sun'iy intellekt orqali aloqa o'rnatib, binoning ichki xaritasini (SLAM texnologiyasi) avtomatik tarzda chizadi. Bir guruh dronlar dushmanni qidirsas, boshqalari signal retranslyatori vazifasini o'taydi, uchinchi guruh esa kamikadze sifatida nishonni yo'q qiladi. Askarlar binoga kirishidan oldin dushmanning soni, qurollanishi va joylashuvi haqida to'liq raqamli ma'lumotga ega bo'ladi. Bu nafaqat talafotlarni kamaytiradi, balki dushmanga psixologik bosim o'tkazib, ularni doimiy kuzatuv ostida ekanliklarini his qilishga majbur qiladi.

Akustik Lokalizatsiya va "Instant Response" (Tezkor Javob) taktikasi- Shahardagi beton binolar o'q ovozi akslantirib, otishma nuqtasini aniqlashni qiyinlashtiradi. Zamonaviy "Shot-Detection" tizimlari askar dubulg'asiga o'rnatilgan mikro-sensorlar yordamida ishlaydi. Tizim o'q ovozi aks-sadosini emas, balki o'q havoda harakatlanayotganda hosil qiladigan tovush to'lqinini tahlil qiladi. Bir soniyadan kamroq vaqt ichida dushman snayperi o'tirgan bino, qavat va deraza koordinatalari aniqlanadi. Ushbu ma'lumot avtomatik ravishda barcha bo'linma a'zolariga va qo'llab-quvvatlovchi dronlarga yuboriladi. Askardan talab qilinadigan narsa faqat o'z ekranidagi qizil belgiga qarab o't ochishdir. Bu texnologiya snayperlarning "ot va qoch" taktikasi samaradorligini nolga tushiradi.

Gidro Taktika- yer osti Kommunikatsiyalari va Gibrid Mudofaa Zamonaviy shahar jangi faqat yer yuzida tugamaydi; yer osti tunnellari, metrolar va kanalizatsiya tizimlari strategik magistrallarga aylanadi. "Gidra" taktikasi bo'linmalarning bir nuqtadan g'oyib bo'lib, dushmanning kutilmagan ortidan yoki qanotidan chiqib kelishini anglatadi. Yer ostida GPS signallari ishlamasligi sababli, zamonaviy bo'linmalar inertial navigatsiya va magnitli datchiklardan foydalanadi. Shu bilan birga, yer osti yo'llari dushman artilleriyasi va aviatsiyasidan himoyalani uchun eng xavfsiz joy hisoblanadi. Bo'linmalar "uch o'lchamli" harakat qiladi: bino ichida, ko'chada va yer ostida sinxronlashgan holda hujum tashkil etiladi. Bu esa dushmanni barcha yo'nalishlarda birdek hushyor turishga majbur qilib, ularning resurslarini parchalab tashlaydi.

O'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, shahar sharoitida jangovar harakatlar olib borishning zamonaviy xususiyatlari an'anaviy taktik yondashuvlarning cheklanganligini ochib beradi. Urban janglar bugungi kunda vertikal, yer osti va axborot makonlarini qamrab olgan ko'p o'lchamli jarayonga aylangan bo'lib, unda ustunlik asosan axborot, texnologiya va kognitiv imkoniyatlar bilan belgilanadi. "Top-Down" shturm, devor ortini ko'rish texnologiyalari, mikro-dronlar to'dasi va avtomatlashtirilgan aniqlash tizimlari jangovar harakatlarda aniqlik va tezkorlikni ta'minlayotgani bilan ajralib turadi. Tadqiqot natijalari bo'linmalar taktik tayyorgarligini qat'iy andozalar asosida emas, balki vaziyatga moslashuvchi va tezkor qaror qabul qilishga yo'naltirilgan tizim sifatida rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi. Shu jihatdan, maqolada ilgari surilgan xulosalar shahar sharoitida jangovar harakatlar olib borish taktikasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karpov, V.I. *Sovremennaya voyennaya podgotovka: teoreticheskiye i prakticheskiye aspekti*. Moskva: Voennoye izdatelstvo, 2018.
2. O'Connor, R. *AI and Urban Combat Training: Limits and Opportunities*. Military Review, 2020.
3. Bartone, P.T. "Psychological Resilience in Military Units." *Military Psychology*, 2006.
4. McRaven, W. *Spec Ops: Case Studies in Special Operations Warfare*. 1995.